

**Tibbiyot oliv o'quv yurtidan keyingi ta'lif dasturlari bo'yicha  
pullik ta'lif xizmatlarini ko'rsatish uchun  
4450-son SHARTNOMA**

Toshkent sh. 05.01.2022

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi nomidan Ustav asosida ish olib boruvchi direktori **X.A. Akilov**, bundan buyon matnda "Ijrochi" deb ataluvchi bir tomonidan, bundan buyon matnda "**Buyurtmachi**" deb ataluvchi **Toshkent vil. kardiologiya dispanseri., F.A.Sarmanov**, ikkinchi tomonidan, birgalikda "**Tomonlar**", deb ataluvchilar mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. Umumiy qoidalari

1.1. Shartnoma **Buyurtmachi** tomonidan o'qishga yuborilgan tinglovchilarni o'qitish masalalarida **Ijrochi** va **Buyurtmachi** o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi hamda **Ijrochi** va **Buyurtmachining** ushbu Shartnomaning amal qilish davrida o'zaro huquqlari, majburiyatları va javobgarliklari aniqlashga mo'ljallangan.

1.2. Shartnoma amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda tuziladi va tomonlar uchun, shu jumladan **Ijrochi** va **Buyurtmachi** o'rtasida sud va boshqa organlarda nizolarni hal qilishda, qonuniy majburiy hujjat hisoblanadi.

1.3. Tomonlarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari bilan tartibga solinadi.

### II. Shartnoma predmeti

2.1. **Ijrochi Buyurtmachining** o'qishga qabul qilingan kontingentiga kunduzgi ta'lif shaklida davlat ta'lif standarti doirasida kalendar reja va o'quv rejalariga, shu jumladan Ijrochining individual va ta'lif dasturlariga muvofiq, umumiyligi **7105000** so'mlik ta'lif xizmatlarini ko'rsatish majburiyatlarini oladi::\*

T/r	Kursning nomi (ta'lif dasturing kodi va nomi)	Kursantlar soni	To'lov miqdori
1.	Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasi, 2.4.93.1.05.02.-Shoshilinch kardiologiya va kardioreanimastiya. (05.01.2022-14.04.2022, Ixtisos ,504)	1	7105000 (7105000*1)
		1	7105000

2.2. **Tinglovchilar** o'quv dasturini o'zlashtirgandan, yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng ularga belgilangan namunadagi ta'lif va malaka haqida hujjat beriladi.

### III. Tomonlarning o'zaro munosabatlari

3.1. **Ijrochi** quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. mustaqil ravishda o'quv jarayonini amalga oshirish, **Tinglovchilarni** baholash tizimlari, shakllari, tartibi va oraliq baholash davriyligini belgilash;

3.1.2. **Tinglovchilarga** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, **Ijrochining** ta'sis hujjatlari, ushbu Shartnoma xamda **Ijrochining** mahalliy normativ hujjatlariaga muvofiq rag'batlantirish choralar va intizomiy jazo choralarini qo'llash.

3.2. **Buyurtmachi Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3. **Tinglovchilar** quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. **Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3.2. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda, o'quv dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan Ijrochining mol-mulkidan foydalanish;

3.3.3. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda **Ijrochi** tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy, madaniy, sog'lomashtirish va boshqa tadbirlarda ishtiroy etish;

3.3.4. o'zining bilimi, qobiliyatları, malakasi va ko'nikmalarini baholash hamda ushbu baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

3.4. **Ijrochi** quyidagilarga majbur: